

MAISHIY JANRDA TEMATIK KOMPOZITSIYA ISHLASH

Nurnazarov Xudoyberdi

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
kafedrasida o'qituvchisi*

e-mail:nurnazarovxudoyberdi@gmail.com

Annotatsiya. *Maishiy janrda xam kompozitsiyani talablari mavjud. Mazmun va g'oyani kompozitsiyani ma'lum vositalarida ochib berish: ko'rish nuqtasi ufq, fazoviy uzoqlashish, shuningdek kompozitsiya markazi, asosiy va ikkinchi darajali predmetlar yorug'ligi, tus, rang, kolorit munosabatlariga rioya qilishdan iborat. Perspektiva qonunlari, muvozanat, simmetriya, dinamika vazifalaridan to'g'ri foydalana bilish, kerak.*

Kalit so'zlar: *janr, kompozitsiya, san'at, perspektiva, etyud, natura, tuzilish.*

Аннотация. *В бытовом жанре тоже есть композиционные требования. Объясните содержание и идею композиции определенными способами: точка обзора - это наблюдение за горизонтом, пространственным расстоянием, а также центром композиции, светом основных и второстепенных объектов, светом отношения. Необходимо уметь пользоваться законами перспективы, функциями баланса, симметрии, динамики.*

Ключевые слова: *жанр, композиция, искусство, перспектива, этюд, природа, структура.*

Annotation. *There are also compositional requirements in the domestic genre. Explain the content and idea of the composition in certain ways: the point of view is to follow the horizon, spatial distance, as well as the center of the composition, the light of the primary and secondary objects, color, color, color relationships. It is necessary to be able to use the laws of perspective, the functions of balance, symmetry, dynamics.*

Keywords: *genre, composition, art, perspective, etude, nature, structure.*

Maishiy janrdagi tematik kartinani yaratish mazmun va g'oyani ochib beruvchi voqea bilan bog'liq va voqeani eng xususiyatli, qiziqarli nuqtasini tasvirlashni talab etadi.

Inson yashab turgan muxitda sodir bo'layotgan voqealarni ifodalovchi bu janr qadim zamonlarda paydo bo'lgan. O'tgan asrning demokratik rassomlari xalq hayotini astoydil haqqoniy, tasvirlab berganlar. Bunga I. Repinning «Yangi kuyovni kuzatish», Ye. Makovskiyning «Xiyobonda», V. Perovinning «Uchovlon» va boshqa suratlar o'ziga xos misol bo'la oladi.

Yoshlarning kundalik hayoti, mehnati, o'qishi, tasviriy san'at maishiy janrning bir qator asarlarida o'z aksini topdi. V.Laktionovni «Frontdan xat» F.Reshetnikovning «Yana ikkimi», «Tatilga keldi» asarlarida vatanga muxabbat, maktab hayoti bilan bog'liq g'oyalar tasvirlangan.

Maishiy janrda xam kompozitsiyani talablari mavjud. Mazmun va g'oyani kompozitsiyani ma'lum vositalarida ochib berish: ko'rish nuqtasi ufq, fazoviy uzoqlashish, shuningdek kompozitsiya markazi, asosiy va ikkinchi darajali predmetlar yorug'ligi, tus, rang, kolorit munosabatlariga rioya qilishdan iborat. Perspektiva qonunlari, muvozanat, simmetriya, dinamika vazifalaridan to'g'ri foydalana bilish kerak.

Kompozitsiya tuzilishi xona chekkasi (interer) yoki ochiq havoda bo'lsada, asosiy o'rinni odam qiyofasining tasviri egallaydi.

Rassomning hayotni kuzatishi natijasida bo'lgan mavzuga oid ko'plab bajarilgan xomaki chizgi, etyud, eskizlar kompozitsiya tuzilishiga asos bo'ladi.

Ikki, uch figurali kompozitsiya tuzish uchun uyda yoki ishxonada odamlarni mehnat qilish yoki dam olish jarayonida tasvirlash uchun uning kasbi, xarakterini, hayotdagi voqeaning qiziqarli holatini o'rganish lozim.

Naturadan bajarish bilan bir qatorda xayoldan va tasavvur qilib ishlashni mashq qilishni odatga aylantirish kerak. Bularning bir nechasi badiiy ijod jarayonining o'sishiga, tasavvurini boyitishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. O'zbek rassomlari Z.Kovalevskayaning «Teatr lojasida» N. Kashinaning «Doira chaluvchi qizlar», R.Axmedovanning «Tushki dam olish», M. Saidovning «Ishga ketishyapti» kartinalari maishiy janrda ishlangan asarlaridir.

Tasviriy san'atning rivojlanishi bilan birga rangtasvir sohasida yangi janrlar paydo bo'la boshladi va tarixiy asar tushunchasi shakllandi. Tarixda yuz bergan voqealarni o'zida aks ettiruvchi asarlar ko'pincha tarixiy kartina deb ataladi. U mustaqil janr sifatida «Uyg'onish davri»da vujudga kelib, XIX asr rus san'atida keng rivojlandi. Qaysi mavzuda asar yaratishdan qat'iy nazar, avvalo chuqur fikrlash lozim shu bilan birga qobiliyat, maxorat, go'zallik xisssiyotini ishga solish ham zarur.

Rassom ommaning go'zallik, estetik talablarini aks ettiruvchi va unga badiiy madaniyatni olib kiruvchi shaxsdir. Xayotiy voqealar tarixiy janr kompozitsiya yechimida rassom tomonidan murakkab ijodiy taxlilidan o'tadi. Kompozitsiya qonunlariga amal qilib, tomoshabinga kartina mavzusini ochib berishga harakat qiladi.

Rus san'atida bu janrning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri V.Surikov edi. U. Vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan qator ajoyib asarlar yaratdi. «O'qchilar qatl etilgan tong» shular jumlasidandir. Bu asarda rassom xalq ommasini kuchga, jasoratga to'la jo'shqin isyonkor qalbli kishilarni tasvirlagan. Rassom asarda tarixiy shaxs Petr 1 obrazini ham ko'rsatadi. Uning boshqa asarlarida ham xalqning o'tmishi R.Razin, Suvorov kabi tarixiy shaxslar obrazida o'zining badiiy ifodasini topgan.

Uning «Boyarinya Morozova», «Yermakni Sibirni zabt etishi» asarlarida xalq bilan davlat o'rtasidagi fojiali qarama - qarshiliklar aks ettirilgan. Rassomning tarixiy janrda ilgari surgan asosiy maqsadi, xalqning tarixiy shaxslar bilan bog'liqligini ko'rsatish edi.

Rassom I.Repin ijodida tarixiy janr muhim rol o'ynaydi. Uning uchta shox asari «Sofya», «Ivan Grozniy», «Zaporojliklar» kartinasi g'oyasi Moskva hayotidagi muxit, rus tarixiga berilib ketgan V.Vasnesov, V.Polenov kabi rassomlarning ta'sirida yaratdi.

Eng axamiyatli «Ivan Grozniy va uni o'g'li shaxzoda Ivan» (1885y), tarixiy kartinasini yaratishga Rimskiy Korsikovning Simfonik asarini musiqasi turtki bo'ldi. Uning asosiy mazmuni tasodifan sodir bo'lgan o'lim (xayotga qasd qilingan) va pushaymonlikdir.

Rassom insonda yaxshiylikka qarshi g'azab, norozilik uyg'otishga chorlaydi.

Intererda to'q fonda yorug' tushib turgan ikki figura orqali asar yechimini topgan.

Yerdagi gilam Grozniy va shaxzodaning liboslari, ularni yuzlaridagi xayajon qo'riqchili ruxiy holat, xonadagi predmetlar to'q ranglarda ustalik bilan tasvirlangan.

N. Gening «Petr 1 shaxzoda Alekseyeni Petergofda so'roq qilmoq»dan asari ham tarixiy xujjatlarni sichiklab o'rganish natijasida, Petergof saroy xonalaridan etyudlar, eskizlar yozish natijasida yaratilgan.

Asarda eski va yangi shakllangan xarakterlar, qudratli rus davlatining sardori, yevropaga yo'l ochgan ulug' Petr tasvirlangan.

Jang manzaralarini aks ettiruvchi janr o'z tematikasi jihatidan tarixiy janrga yaqin turadi.

Bunnig sababi shundaki jang manzaralarini ko'rsatuvchi bu jang faqat urush voqealarini aks ettiribgina qolmay, jang bilan bevosita bog'liq bo'lgan tarixiy voqealarni aks ettiruvchi janr tarixiy janrning bir qismi deb qaralishi mumkin.

Askarlarning vatanparvarlik, fidokorligi, mardligini V.Surikov o'zining «Suvorovni Alpdan oshib o'tishi» suratida aks ettirgan. Bu asarda rassom Suvorovning harbiy san'atini katta maxorat bilan tasvirlagan. Jang manzaralarini ko'rsatuvchi janrga B. Grekov asos soldi. Uning «Birinchii otliqlar Armiyasi», «Karnaychilar», «Tachanka» kabi suratlari ana shular jumlasidandir.

«Tanchanka»ni mohirona tasvirlangan shiddatli harakatidan g'alabalga bo'lgan ishonch va iroda, qahramonona pafos ifodalangan.

Har bir san'at asarini yaratishda mazmun va g'oyani asosiy yechimi eskizda o'z aksini topishi lozim.

Keyinchalik eng yaxshi bajarilgan eskiz tanlab olinadi. Izlanish jarayonida kompozitsiyaga kerakli detallarni, predmetlarni aniqlab bilish lozim, mavzuda sodir bo'layotgan voqeaning markaziy qismini topish kerak.

Eskiz bajarish jarayonida yaxlitlik, masofa, keyinchalik, havo perespektivali qonunlarga, asosiy va ikkinchi darajali guruh xususiyatlariga, kolorit tanlashga alohida ahamiyat berish o'rnlidir.

Kompozitsiya tuzilishini to'g'ri topish uchun naturadan – odamlar guruxidan tezkor chizgilar, eskizlar bajarish zarur, Chunki o'tkir qobiliyatni ijodiy tasavvur, «fantaziyani» shakllantirish aynan shu jarayonda sodir bo'ladi. Bu ijodiy jarayondagi o'ziga xos ko'nikmalarni hosil qilish uzoq vaqt mashq qilib ishlashni talab etadi.

Kompozitsiya - bu muallifning ijodiy, badiiy irodasi, maxsuli hisoblanadi.

Shunday ekan tasviriy san'atning barcha janrlarida kompozitsiya yaratish yuksak darajada bilim, ko'nikma, malaka hamda qobiliyat, salohiyatni talab etadi.

Shu bois bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan vaqtdanoq qamrovli faoliyatga o'zlarini tayyorlab borishlari lozim. Dastgohli va kitob grafikasi ham tasviriy san'atni barcha turlari kabi kompozitsiyaning umumiy qonunlariga tayanadi. Dastgohli grafika o'z xususiyatlariga ega –shakl, masofa, grafika yo'lida chiziq, shtrix va kontur vositasida oq -qora tasvirda ifoda etiladi.

XIX va XX asrga kelib kitob grafikasi rivojlana boshladi. Ayniqsa V.Favorskiy, D. Shmarinkov, Ye. Kibrik, O.Vereyskiy kabi rassomlar klassik adabiyot asarlarini chuqurroq o'rganib kitob grafikasini yuksaltirdilar.

Kitob grafikasini bezagi muvaffaqiyatli chiqish, rassomning qobiliyatiga, adabiyotni qanday taxlil qila olishga bog'liq.

Mahorat cho'qqisini egallagan bezakchi rassomlar kitob mazmunini alohida grafik asari darajasiga yetkazadilar. Rassomlar D.Kardovskiyning yozuvchi A. Chexov yozgan «Kashtanka», A. Griboedov yozgan «Gore ot uma», A. Benuaning shoir A. Pushkinning «Mis chavandoz» asarlariga ishlangan kitob bezaklari misol bo'la olishi mumkin.

Kitob bezash san'ati zarvara - muqova va illyustratsiyalarni o'z ichiga oladi. Rassom hamma elementlarini bir kompozitsiya yechimida umumlashtiradi.

Badiiy adabiyotlarning mazmuni va yo'nalishi (stili) kitob bezagida o'z aksini topish kerak.

Kitob unsurlari: zarvaraq ust muqova, tutil, zastavka, konsovka, vinetka, bezak –harf va xokazolar.

Rassomning vazifasi shundan iboratki u voqeani, adabiy obrazni, kitob mazmunini tasvir orkali tushunishga yordam berishi kerak. Kitob uchun ishlangan illyustratsiyalar shakl jixatidan dinamik, rangdor, ta'sir etuvchi, adabiy asarning teks matnini jozibali qilib ko'rsatishga yordam berish lozim, Bolalar kitobiga ishlangan tasvirlar, bolalarning uzoq vaqt eslarida qolib, ularni badiiy didlarini o'stiradi. Bezak jarayonida format va xarf ishlashda bolalarning yoshlari va talablarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Zarvaraq (kitobning ustki qismi) o'quvchilarga adabiy matnning ma'lum yo'nalishini tasavvur etishlari uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari kitobning ustki bezagi reklama vazifasini ham o'tashi mumkin. Muqova bezagi kitob mavzusining maqsadiga muvofiq bo'lishi uchun kitobning nomi, uni ifodalovchi tasvir, matn munosabatlari hamda uyg'unligiga, birligiga ahamiyat berish lozim.

Muqova bezagidagi kompazitsiya tuzilishi, mazmun va g'oyani kitobning qaysi yoshdagi o'quvchilarga yozilganligini belgilab beradi.

Kitobga illyustratsiya bajarish, adabiy asarga qarab ilmiy, ommabop, xujjatli, badiiy bo'lishi mumkin.

Ilyustratsiya grafikasi yaqin masofadan ko'rishga mo'ljallangan. Kitob mazmuniga qarab tasviriy vositalardan foydalanish mumkin (Tush, grafit, qalam, akvarel va xokazo). Adabiyot obrazlar rassom qanday yo'nalishda va texnikada tasvir bajarish kerakligini belgilaydi.

Bir kitobdan qalam tasvir, soya – yorug', shakl, havo perespektivasi vosita bo'lsa, ikkinchisidan ertak mavzusi bo'lsa – odam va hayvon, o'simliklarni demokrativ tema usulida ifodalashi mumkin. Misol sifatida Bilibinning «Qurbaqa malika» ertak kitobining bezagini keltirish mumkin.

Kitob muqovasidan Bilibin rus xalq ornamentlaridan foydalanib, baliqlar, suv parilari tasvirini ritm qaytarilishida ustalik bilan tasvirlagan. Muqova o'rtasida eski rus xarfida sarlovhasi joylashtirilgan «Shrift» harakteri dekorativ tasvirga mos tushgan. Ertak illyustratsiyalari ornament shaklida tasvirlangan.

O'zbek kitob grafika san'atining rivojlanishi XX asr 40-50 yillariga to'g'ri keladi. Kitob grafikasining ko'zga ko'ringan keksa vakillari V. Kaydalov, I. Ikromov, M.Shchirovskiyilar samarali ijod qildilar.

V. Kaydalovning «O'zbek antalogiyasi», «Oygul bilan Baxtiyor», kitobiga. I.Ikromovning «O'zbek lirikasi», M. Shchirovskiyning «Ming bir kecha» kitoblariga ishlangan bezaklari kitob grafika san'atini olamga tanitdi.

Ularni ananalarini davom ettirib Q. Basharov dastgoxli va kitob grafikasi soxasini ko'plab bezaklar yaratib samarali ijod qilib kelmoqda. Uning «O'zbek xalq ertaklari»ga ishlangan bezaklari maqtovga sazovardir.

Keyingi paytda T.Muxamedov, A.Siglinsev, A.G'ulomov, M.Kagarov, I.Vaxitov kabi iste'dodli grafika san'ati rassomlari, o'zlariga xos usuldagi sermazmun ijodlari bilan o'zbek kitob grafikasi san'atini rivojlanishiga o'z xissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Bezak san'atini asosiy qonun - qoidalarini o'rganishda albatta kitob grafikasi namunalarining mualliflari: V. Kaydalov, M.Kagarov, T. Muxamedovlar bilan birga rus grafika rassomlari: I.Bilibin, Ye.Kibrik, D.Shmarinov, Bisti asarlariga murojat qilish mumkin.

Yakunida shuni takidlab o'tish kerakki ko'p yillik ijod va tajriba natijasida shakllangan kitob garfikasidagi kompozitsiya bezagini qonun va qoidalari ko'plab rassomlar tomonidan tan olinib o'z ijodlarida qo'llab kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K. Apuxtin «Tasviriy san'at asoslari» 1967y. Toshkent O'qituvchi 1984y.
2. B..AK.Azimova «Natyurmort chizish va tasvirlash metodikasi» 1984y Toshkent O'qituvchi.
3. G.M.Abduraxmonov «Tasviriy san'at kompozitsiyasi» 1996y. Toshkent.
4. M.I.Zemskaya «Aleksandr Volokov Master grantovoy chayxano'» Sovetskiy xudojnik 1975y.
5. V. Shoroxov «Osnovo' kompozitsiya» Moskva «Prosveshenie 19779y.»
6. A.Egamberdiev «Janrovaya jivopis» Uzbekistana. Izd. Gofur Gulyam Toshkent 1989y.
7. Шарипов, Ш. С. (2017). Personality model of modern teacher. *Eastern european Scientific Journal–Germany*, 93-96.
8. Шарипов, Ш. С. (2000). Педагогические условия формирования изобразительского творчества студентов (на примере факультетов Труда и профессионального образования)
9. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.*
10. Алқаров, Қ. Х., Ибрагимов, А. Р., & Пардаев, Б. А. (2019). ТЎГАРАК АЪЗОЛАРИНИ ИЖОДКОРЛИК ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ВА БОСҚИЧЛАРИ. *Интернаука*, (20-3), 51-52.
11. Xudoyberdiyev, P. (2020). TASVIRIY SAN'ATDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR BAJARISH JARAYONIDA TALABALARNI AMALIY PYERSPEKTIVADAN FOYDALANISHGA O'RGATISH. *Science and Education*, 1(8).
12. Xudoyberdiyev, P. (2021). RANGTASVIR TARAQQIYOTINING USTUVOR YO 'NALISHLARI. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).
13. Xudoyberdiyev, P. (2020). TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA FAOLIYAT TURLARI ALOQADORLIGI ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING METODIK ASOSLARI. *Журнал музыки и искусства*, 1(1).
14. Xudoyberdiyev, P. (2020). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences: European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

